

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA TABIATSHUNOSLIK, EKOLOGIK VA GEOGRAFIK TASAVVUR VA TUSHUNCHALARNI HOSIL QILISH METODIKASI

Nabiyeva Sarvinoz Otabek qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi birinchi kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15190465>

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tabiatshunoslik, ekologik va geografik tasavvur va tushunchalarni hosil qilish ularning bilish qobiliyatlari - sensor apparati, mantiqiy fikrlashi, diqqat, nutq, kuzatuvchanlik, bilishga qiziqishi bilan mustahkam bog'langanligini aniqlash, fikrlashni rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun bolalarning tabiat predmet-hodisalari bilan tanishtirish, ularni kuzatilayotgan predmet-hodisalarni tushunishga o'rgatish va ular orasidagi aloqa va munosabatlarni anglashlariga olib kelish haqidagi tasavvur va tushunchalarni anglashga yordam beradi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tabiatshunoslik, ekologik va geografik tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodikasi haqida fikr-mulohaza bildirilgan.

Kalit so'zlar: Qobiliyat, sensor apparat, kuzatuvchanlik, dunyoqarash, sadoqat, ko'nikma, elektron darsliklar, sayr, ekskursiya.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНЫХ, ЭКОЛОГО- ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ И ПОНЯТИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. Формирование естественнонаучных, эколого-географических представлений и понятий у детей дошкольного возраста способствует осмыслению представлений и понятий об их познавательных способностях - сенсорном аппарате, логическом мышлении, внимании, речи, наблюдательности, интересе к познанию, - выявлению их прочной связи, развитию мышления и формированию научного мировоззрения, знакомству детей с природными объектами и явлениями, обучению их пониманию наблюдаемых объектов и явлений, подведению их к пониманию связей и отношений между ними. В статье дается обратная связь по методике развития естественнонаучных, экологических и географических представлений и идей у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Умение, сенсорный аппарат, наблюдательность, мировоззрение, лояльность, навыки, электронные учебники, прогулка, экскурсия.

METHODOLOGY FOR FORMING NATURAL SCIENCE, ECOLOGICAL AND GEOGRAPHICAL IMAGING AND CONCEPTS IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. *The formation of natural science, ecological and geographical ideas and concepts in preschool children helps to understand the concepts and concepts of their cognitive abilities - sensory apparatus, logical thinking, attention, speech, observation, interest in knowledge, to develop thinking and form a scientific worldview, to familiarize children with natural objects and phenomena, to teach them to understand the observed objects and phenomena, and to bring them to an understanding of the connections and relationships between them. This article provides feedback on the methodology for the formation of natural science, ecological and geographical ideas and concepts in preschool children.*

Keywords: *Ability, sensory apparatus, observation, worldview, loyalty, skills, electronic textbooks, walk, excursion.*

Kirish. O'zbekiston kelajagi poydevori bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda maktabgacha ta'limda tabiatshunoslik, ekologik va geografik tasavvur va tushunchalarni hosil qilish, shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, tabiatga mehr-muhabbat bu, eng avvalo, o'z xalqi va Vataniga bo'lgan sadoqatdir. Insonning buyuk kelajakka bo'lgan intilishlari tabiat va jamiyatga bo'lgan mehr-muhabbatidan boshlanadi.

Bolalarda tabiatga oid bilimlar birdaniga faqulodda paydo bo'lmaydi. Ular dastlab, tabiatshunoslik, ekologik va geografik tasavvur va tushunchalar shaklida vujudga kelib asta-sekin o'sib rivojlanib boradigan murakkab ruhiy jarayondir.

Asosiy qism. Bolalarda tabiat to'g'risidagi real tasavvur tushunchalarni hosil bo'lishi uchun ularda tabiatga qiziqish va ijobiy munosabat ona yerga muhabbat vatanparvarlik, mehnatsevarlik sifatlarini o'stirish zarur. Bular o'z navbatida tabiatni muhofaza qilish tabiat boyliklaridan ehtiyotlik bilan tejab foydalanish madaniyatini taqozo qiladi. Bolalarda mehnatni sevish, o'zgalar mehnatini qadrlash, o'simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o'z Vatanini, tabiatni sevish, tabiat go'zalliklarini ko'ra olish kabi qislatlarni o'stirish orqali tarbiyaviy vazifalar qal qilinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas. Bolalarni har tomonlama rivojlantirish. Ularni barkamol qilib o'stirish tug'ilgan kundan boshlab amalga oshiriladi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohatlarning bosh maqsadi aynan mana shunga yaratilgan. Yani o'sib kelayotgan yosh avlod, mustaqil O'zbekistonimizning kelajagini, taraqqiyotini kafolatlaydi. Mana shu ustivor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda, bolalar bog'chalarida farzandlarimizga beriladigan har qanday bilim, ularda Vatanga sadoqat o'z o'lkasini sevish, Vatan bilan g'ururlanish ruhini tarbiyalashi lozim.

Shunday ekan tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim; -bolalarni o'z o'lkasini sevisga o'rgatish,tabiat bilan tanishtirish orqali bolalarda ilmiy dunyoharashni rivojlantirish, -bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish, o'zining, tengdoshlari va kattalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish, tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, qayol, tasavvur, nutq, diqqat),bolalarning hissiyotini irodasini rivojlantirish,tabiat in'om etgan ne'matlarni avaylab asrashga o'rgatish.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati. Tabiatga muhabbat-juda keng qamrovli va murakkab his-tuyg'udir. Ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashish kabilar. Shular asosida talabaning ekologik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini didaktik jihatdan ta'minlanishiga erishamiz. Buning uchun ekologiyaga oid o'quv materiallarini tanlash, tabiatni muhofaza qilishga oid faoliyat turlari va ular mohiyatini Bolalar ongiga singdirish, insonning tabiat hodisalarini anglashi, mazkur hodisalarning hayotiyliigi, mukammalliligini tushunish lozimligining ustuvorligini anglashi zarur.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tabiatshunoslik, ekologik va geografik tasavvur va tushunchalarni hosil qilish mazmuni:

- bolalar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish;
- tabiat va jamiyat o'rtasidagi ma'lum bo'lgan ekologik bilimlar ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berish;
- bolalar tomonidan ekologik qonuniyatlarning o'zlashtirilishiga erishish;
- tabiatda sodir bo'ladigan turli xildagi fojialarni anglash, ularning mohiyatini bilib olish, ekologiyaga oid ta'lim vazifalarini ifodalash, kuzatish va tajribalarni rejalashtirish hamda amalga oshirish, ekologiyaga oid nazariy-amaliy g'oyalarni oydinlashtira olish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish malakalarini hosil qilish;
- tabiatga qadriyat sifatida qarash tuyg'usini uyg'otish va madaniyatini shakllantirish, tabiatni muhofaza qilish va uning boyliklaridan unumli foydalanishni takomillashtirish;
- respublika hududidagi biologik xilma – xillikni bilishga imkon beradigan nazariya va amaliy g'oyalarni o'rganishni tashkil etish;
- ekologiya sohasidagi muayyan bilimlar hajmini, tasavvur va tushunchalar doirasini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqish;
- atrof- muhitni muhofaza qilish, uning zahiralaridan unumli foydalanishga o'rgatish;
- bolalarni atrof-muhit bilan muloqot davrida ekologik amaliyotni kengaytirish, ularda atrof muhitga nisbatan faol ta'sir etuvchi ekologik munosabatni tarkib toptirishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tabiatshunoslik, ekologik va geografik tasavvur va tushunchalarni hosil qilishning vazifasi talabalarni tabiat bilan tanishtirish usullari, ish

shakllari, shuningdek, pedagog, psixolog olimlar va mutafakkirlarning tabiatning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlari bilan tanishtirish va nazariy bilimlar berishdan iborat.

Tabiat bilan tanishtirish fani pedagogikaning bir qismidir, chunki tabiat bilan tanishtirish orqali barcha tarbiya turlari amalga oshiriladi. Tabiatshunoslik, ekologik va geografik tasavvur va tushunchalarni hosil qilishda bolalarning yosh xususiyatlari, fiziologik tuzilishlarini hisobga olgan holda tanishtiriladi.

Shu bilan birga turli yosh guruhlarida ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, xarakter xislatlari, iste'dodlari hisobga olinadi. Tabiat bilan tanishtirishning bolalarni aqliy jihatdan o'sishiga ta'siri kattadir. Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Tabiatning go'zalligi hatto eng kichik bolalarni ham o'ziga rom qilmasdan qolmaydi.

Ularni tabiatni bilish jarayonida e'tiborlarini o'rmonning shovqinlari, qushlarning sayrashi, barglarning shakli va rangi, gullarning hidlari, hayvonlarning harakatlariga qaratish kerak. Buning muhim jihati bola kelajakda o'z hayotida dunyoning barcha va xilma-xil go'zalliklarini idrok eta olishiga sharoit yaratishdir. Haqiqatni to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasi, bolalarda tabiat haqida noto'g'ri tushunchalar hosil bo'ladi.

Tabiatshunoslik, ekologik va geografik tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodlari uchta asosiy guruhga bo'linadi:

1.Ko'rgazmali uslub — kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm, kinofilm, ekskursiyalar;

2.Amaliy uslub — o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar;

3.Og'zaki uslub — tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat. Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o'z o'lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiradi. **Kuzatish uslubi.** Turli yosh guruhlarida bolalarni tabiatshunoslik, ekologik va geografik tasavvur va tushunchalarni hosil qilishda tarbiyachi ko'rgazmali metod - kuzatishdan keng foydalanadi.

Kuzatish - tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan va bevosita hodisalarni borishga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaror diqqat talab etiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o'stirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir. Bu haqda K.D.Ushinskiy shunday deydi: «Haqiqiy insoniylik aqliy nutq, to'g'ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to'g'ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko'rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi». Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma'lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi.

Kuzata bilish — juda muhim xususiyat bo‘lib, bunda bolada to‘g‘ri yoza bilish, og‘zaki nutq malakalari rivojlanadi.

Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o‘zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga o‘rgatish zarur. Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqa va sabablarning bog‘lanishlarini ilg‘ab olishni bolalarga o‘rgatishi kerak. Shunday qilib maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning tafakkuri tabiat haqidagi aniq bilimlarni to‘plash orqali o‘sadi.

Xulosa qilib aytganda, tabiatshunoslik, ekologik va geografik tasavvur va tushunchalarni hosil qilishda tanlangan metod dastur vazifasining to‘liq bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatini ta‘minlashi lozim. Mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan o‘qitish metodlarining xilma-xilligi tarbiyachidan puxta sharoit yaratishni talab qiladi: hayvonlar, xonaki o‘simliklar, rasmlarni ko‘rish uchun bolalar yarim doira qilib o‘tqaziladi. Bu bolalarning mashg‘ulotda faol ishtirok etishlariga, dunyoni yaqqola idrok etishida, tabiatga mehr berishiga, ekologik tarbiya olishiga, geografik tasavvurlarni ilg‘ashiga imkon beradi.

REFERENCES

1. Рахимов Ф. Б., Шарипова М. Б. МЕСТО ИННОВАЦИЙ В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ПРОБЛЕМ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Academy. – 2020. – №. 5 (56).
2. Шарипова М. Б., Садуллоева М. Б. К. ПРОФЕССИЯ «УЧИТЕЛЬ» И ЕЁ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46)
3. Шарипова М. Б., Мустакимова Г. А. Наследие мыслителей в эстетическом воспитании учащихся начальной школы //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 10-5. – С. 48-49.
4. Ахмедова М. Ш., Шарипова М. Б. ВОСПИТАНИЕ РЕБЕНКА НА ОСНОВЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ //Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч. – 2016. – С. 118.
5. Шарипова М. Б., Истамова З. Особенности этического воспитания детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 39.
6. Шарипова М. Б., Саъдуллаева М. Б. К. РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
7. Шарипова М. Б., Ашурова Ф. А. Межличностные отношения в дошкольном возрасте //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 35

8. Шарипова М. Б., Ньматова Ш. Н. Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-3. – С. 113.
9. Камилова, Г. А., Курбанова, Г. Р., & Джаббарова, С. З. (2020). Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений. *Academy*, (5 (56)), 25-27.
10. Камилова, Г. А., & Тураева, О. С. К. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Проблемы науки*, (4 (63)), 50-52.
11. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). Эффективность экологического образования: образование дошкольников с помощью педагогических технологий. *Academy*, (12 (63)), 60-62.
12. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ОБРАЗОВАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Academy*, (12), 60-62.
13. Камилова, Г. А. (2021). Развитие системы дошкольного образования. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 86-88.
14. Alimovna, K. G. (2022). Laws of Ecological Education. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 241-244.
15. KAMILOVA, G. (2024). EKOLOGIK TARBIYADA PAREMIOLOGIYA VA UNING XUSUSIYATLARI. *News of the NUUz*, 1(1.1), 83-86.
16. Kamilova, G. A. (2024). PARAMERIK JANRLAR VOSITASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV. *Inter education & global study*, (5), 565-5574.
17. Камилова, Г. А. (2023). Мактабгача Таълим Ташкилотларида Экологик Тарбия. *Miasto Przyszłości*, 42, 330-333.
18. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. *Ню А. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab-Oliy talim konsepsiyasi muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro*, 46-48.
19. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. *Ню А. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab-Oliy talim konsepsiyasi muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro*, 46-48.

20. Kamilova, G. (2020). Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
21. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). Повышение экономической грамотности у детей дошкольного возраста с помощью развития коммуникативных компетенций. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 44-46.
22. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). КОММУНИКАТИВНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 47-50.
23. Kamilova, G. A. Go'Zal Rajab Qizi Qurbonova (2021). *MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
24. Kamilova, G. A. (2021). *MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
25. Камилова, Г. А., Султонова, М. И., & Бобожонова, М. А. (2023). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ STEAM В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 41-44.
26. Safarova, S., & Kamilova, G. (2024). *MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ERKIN FIKIRLASHINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING ANAMIYATI. Modern Science and Research*, 3(12), 504-507.
27. Камилова, Г. А., Мухаммедова, М. М., & Жабборов, О. С. К. (2023). МЕТОДИКА СИСТЕМАТИЧЕСКОГО ВКЛЮЧЕНИЯ МЕНТАЛЬНОЙ АРИФМЕТИКИ ЧЕРЕЗ ИГРЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 38-41.
28. Камилова, Г. А., & Кулиева, Х. Г. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 82-84.
29. Jabbarov, I. A. U. (2022). TYPOLOGY AND FUNCTIONS OF A COMPLIMENT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 854-860.
30. Alimovna, K. G., & Abduraufovna, B. A. (2025). INNOVATIVE APPROACHES TO CREATING A DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT FOR PRESCHOOL CHILDREN. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 3(3), 1-5.

31. Камилова, Г. А., & Тохирова, Ш. Б. К. (2023). ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ВТОРОМУ ЯЗЫКУ В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 84-88.
32. Kamilova, G. A., & Jo'rayeva, D. R. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlari, "Maktabgacha ta'lim-maktab-oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.
33. Rahmidinovna, Z. D. (2024). THE GOALS AND OBJECTIVES OF INTEGRATED CLASSES IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES AND THE IMPORTANCE OF INTERDISCIPLINARY COMMUNICATION. *European International Journal of Pedagogics*, 4(11), 50-55.